

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA AFRIKA XALQLARINING MUSTAQILLIK KURASHI.

Boboxonov Lochinbek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: officialbobokhonov@gmail.com

Boboraxmatova Dilshoda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: dilshodaboboraxmatova@gmail.com

Qobilboyeva Zarnigor

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: zarnigorqobilboyeva030307@gmail.com

Annotatsiya: Quyida berilgan maqolada ikkinchi jahon urushidan so`ng demokratiyaga asoslangan dunyoning shakllanish jarayonida mustamlakachilik va imperiyachilik siyosatining yemirilishi va mustaqil davlatlarning tashkil topishi, xususan, Afrika xalqlarining mustaqillik kurashlari aks etgan.

Kalit so'zlar: "Afrika yili", V Panafrika konferensiyasi, Zimbabve, Janubi-G`arbiy Afrika, Afrika mintaqasi muammolari.

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan eng dolzarb muammolardan biri – bu mustamlakachilikni tugashi va xalqlarning erkin yashashi hamda o`z taqdirini o`zlari hal qilishlari bo`ldi. Eng ko`p mustamlakaga ega bo`lgan davlatlar Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Italiya va Portugaliya hisoblanar edi. Ulardan birontasi ham Osiyo va Afrika hududidagi xalqlarga erkinlik berishi va o`z ixtiyorlari bilan bu yerlardan chiqib ketishni istamas edi. Ikkinchi jahon urushi Afrika va Osiyo davlatlarining ichki taraqqiyotiga katta ta'sir ko`rsatdi. Birinchi jahon urushi davrida bo`lgani kabi, bu davlatlarning xalqlari o`z xohish-istaklariga qarshi bo`lgan holda bir-biriga qarshi kurash

olib borayotgan tomonlarning urush harakatlarida qatnashishga majbur bo'ldi. Ikkinchi jahon urushining yakunlanishi Osiyo va Afrika xalqlari hayotida yangi bosqich boshlab berdi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari 16-17-asrlardan beri bir necha yuz yilliklar mobaynida bunyod etilgan mustamlakachilik tizimi yemirila bordi. Ko'pgina xalqlar birinchi bor o'z mustaqil davlatlariga ega bo'lib, o'z taqdirlarining sohibiga aylandi, boshqa qit'alar va mamlakatlardagi xalqlar bilan bevosita siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatdi. 60-yillarning o'rtalarida jahon siyosiy xaritasida dunyo davlatlari hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 50 dan ziyod yangi davlatlar qo'shildi. Urushdan so'ng Afrikada milliy-ozodlik harakatining xarakteri o'zgardi. 1945-yil Manchestr shahrida V Panafrika kongressi bo'lib o'tdi. U Afrika xalqlari kurashida sifat jihatdan yangi davr boshlanganini aks ettirdi. Bu kongresda oldingilariga nisbatan juda ko'p Afrika tashkilotlari qatnashdi. Kongressda mustamlakachilikka va imperializmga qarshi ruh ustuvor bo'ldi. "Afrika yili" deb e'lon qilingan 1960-yilning o'zidayoq Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiyaning sobiq mustamlakalari o'rnida 17 ta davlat siyosiy mustaqillikka erishdi. Bu jarayon yana davom etdi. 1973-1975-yillarda portugallarning sobiq mustamlaka xalqlari mustaqillikka erishdi. 1989-yilda Afrikada saqlanib qolgan yagona mustamlaka – Namibiya ham suveren davlat maqomini oldi. Oldinroq esa Misr ham Angliya bilan mustaqillik to'g'risida shartnoma izmolaydi, biroq bu shartnomalardagi ba'zi bandlar uning suverenitetini cheklar edi. "Afrika yili" qit'adagi holatni tubdan o'zgartirib yubordi. Endilikda boshqa hududlarda ham mustamlaka tizimining yemirilishi muqarrar bo'lib qoldi. Keyingi yillarda Buyuk Britaniyaga tegishli barcha mustamlakalar o'z mustaqilligini e'lon qildilar. Faqat bir imperiya – Portugaliya imperiyasi yashashda davom etdi. Portugaliyaning Afrikadagi mustamlakalari (Mozambik, Angola, Gvineya-Bisau) uning dengizorti hududlari deb e'lon qilingan edi. Bu "dengizorti" hududlarning mustaqillik kurashi 1974-yilgacha davom etdi va u g'alaba bilan yakunlandi. 1975-yilgi Portugaliya inqilobidan so'ng uning mustamlaka hududlarida ham yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi. 1980-yilda yana bir mustaqil Afrika davlati – Zimbabve davlati vujudga keldi. Bu davlatning vujudga kelishi juda og'ir

kechdi. Gap shundaki, Rodeziyada (Britaniya mustamlakasi) kam sonli, biroq uyushgan oq tanlilar ham yashardi. Ular 1965-yilda Rodeziyani mustaqil deb e'lon qildilar. Biroq bu davlatni Britaniya ham, BMT ham tan olmadi. Mahalliy afrikaliklar esa ozodlik uchun qurolli kurash boshladilar. Yakkalanib qolgan oq tanlilar 1979-yilda muzokara boshlashga majbur bo'ldilar. Uning oqibatida davlat afrikaliklar qo'liga o'tadi va 1980-yilda Rodeziya o'rnida yangi Zimbabve davlati tashkil topdi. Afrikadagi eng oxirigi mustamlaka davlat Janubi-G'arbiy Afrika edi. Bu hudud birinchi jahon urushiga qadar Germaniya mustamlakasi edi. Urushdan so'ng Millatlar Ligasi ushbu hudud boshqaruvini JARga berdi. JAR dastlab ushbu hududni o'ziga qo'shib olishga urindi. Bu ishni uddasidan chiqqa olmagach, bu yerda oq tanlilar hukumatini tuzishga qaror qildi. Bu esa 1966-yilda mahalliy aholi tomonidan qurolli kurash boshlanishiga olib keldi. BMT 1973-yilda JARni Janubi-G'arbiy Afrika hududini boshqarish huquqidan mahrum etdi. Mahalli aholining mustaqillik uchun kurashi 1989-yilda g'alaba bilan yakunlandi. Mamlakat Namibiya nomi bilan mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Shu tariqa mustamlaka Afrika hududlaridagi mustaqillik kurashi g'alaba bilan yakunlandi. Bir vaqtlar butunlay mustamlaka bo'lgan Afrika hududida 52 ta mustaqil davlat tashkil topdi. Ularning ko'pchiligi o'zlarini respublika deb e'lon qildilar. Afrika davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil emas. Chunonchi, tropik Afrika Shimoliy va Janubiy Afrikadan keskin farq qiladi. Tropik Afrika davlatlari mintaqaning eng qoloq mamlakatlari hisoblanadi. Dunyo aholisining 10 % ini tashkil etuvchi Afrika qit'asida dunyo sanoat maxsulotining 1% i ishlab chiqariladi. Mintaqada eng katta muammolardan yana biri – oziq-ovqat muammosi hisoblanadi. Bugungi kunda Afrika aholisining 50 foizdan ortiq qismi qashshoqlikda yashaydi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi o'sishiga nisbatan tobora oraqada qolmoqda. Yirik muammolardan yana bir jiddiy muammo, etnik muammolar hisoblanadi. Afrika davlatlari hayotida urug`-qabila tizimi kuchliligicha qolmoqda. Bir xalq turli davlatlar hududida yashamoqda. Etnik nizolar davlatlar yaxlitligini ham jiddiy xavf ostiga qo'ymoqda. Bundan tashqari harbiy mojarolar va tashqi qarz ham Afrika qit'asini jiddiy muammolariga sabab bo'lmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. X.Kichkilov, M.Fayzullayeva – “Eng yangi tarix” (1945-2010-yillar). – T.,2011
2. R.Farmonov, Q.Jo’rayev – “ Xalaqro munosabatlar tarixi “. – T.,2013
3. M.Abdurazzoqova – “ XX asr ikkinchi yarmi jahon tarixi”. –T., 2000.
4. M.Lafasov – Jahon tarixi (1918-2008). – T., 2010
5. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).
6. Мамаражабов, В. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 895-900.